


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**DENOV TADBIKKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**“TASDIQLAYMAN”**  
DTPI rektori  
O.A.Ruziyev  
“28” 10 2024-yil

**07.00.07-ETNOGRAFIYA, ETNOLOGIYA VA ANTROPOLOGIYA**  
**IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH**  
**SINOVLARI UCHUN MAXSUS IXTISOSLIK FANLARIDAN**

**DASTUR VA BAHOLASH MEZONI**

**Denov-2024**

## Annotatsiya:

Ushbu dastur 07.00.07 – “Etnografiya, etnologiya va antropologiya” ixtisosligi bo'yicha tanyach doktoranturaga kirish bo'yicha ishlab chiqilgan bo'lib, unda talabgorlar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan asosiy talablar bayon qilingan.

### Tuzuvchilar:

D.T.Yaqubova		DTPI, Tarix va falsafa kafedrası, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori.
B.S.Nazirov	-	DTPI, Tarix va falsafa kafedrası, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori.
A.X.Mengliboyev	-	DTPI, Tarix va falsafa kafedrası, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori.
<b>Taqrizchilar</b>		
Sh.S.G'afforov		Samarqand davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori
N.I.Xasanova		Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ushbu dastur va baholash mezonini “Tarix va falsafa kafedrası” kafedrasining 2024-yil 16 -oktabrdagi 3 -sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

### Kafedra mudiri

 D. Yakubova

Ushbu dastur va baholash mezonini Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti kengashining 2024-yil 26 -oktabrdagi 3 -sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va institut o'quv uslubiy kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

### Fakultet dekani

 M. Toshboboyev

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'quv uslubiy kengashining 2024-yil \_\_\_-oktabrdagi \_\_\_-sonli yig'ilishida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

### O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i

 B. Pirmiqulov

Imtixon dasturi tasdiq va foydalanish uchun tavsiya etiladi.

### O'quv ishlari bo'yicha prorektor

 S.N. Allayarova

## KIRISH

Dastur “Etnografiya, etnologiya va antropologiya” fanidan doktorantlar (PhD), mustaqil izlanuvchilar uchun mo'ljallab tuzilgan. Savollar ilmiy tadqiqotchilarga mo'jallangan bo'lib, muammoli xarakterga ega. O'zbekiston tarixiga oid masalalar har tomonlama qamrab olingan. Unda xalqimizning eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlarga bosib o'tgan sharaflari va murakkab tarixiy yo'l, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy - ma'naviy hayoti sahifalari yoritiladi.

O'zbekiston Respublikasida amalda tatbiq etilayotgan “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturida ko'rsatib o'tilganidek, hozirgi zamon yoshlarining tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikri rivojlantirish, “Etnografiya, etnologiya va antropologiya” fanining inson va jamiyat tarixi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib berish masalalari nihoyatda muhimdir. Shu boisdan dasturda, hozirgi zamon talablari darajasida Etnografiya, etnologiya va antropologiya fanining dolzarb masalalarini haqqoniy o'rganish va bu sohada erishgan eng yangi ilmiy yutuqlarini bilish ham asosiy vazifa sifatida belgilangan.

Hozirgi kunda jahon hamjamiyatida sodir bo'layotgan globalizatsiya va integratsiya jarayonlarida milliy o'zlikni anglash, milliy mustaqil va demokratik davlatni rivojlantirish va mustahkamlash, mamlakatimizda siyosiy, ma'naviy va iksisodiy-ijtimoiy sohalaridagi islohotlarni anglab yetish va chuqurlashtirishda “Etnografiya, etnologiya va antropologiya” ni chuqur va keng bilish davr talabidir.

Etnografiya, etnologiya va antropologiya fanining nazariy - uslubiy asoslari Etnografiya, etnologiya va antropologiya fani bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad o'rganilayotgan hudud aholisining etnik xususiyatlarini tumush tarzi xo'jalik faoliyati urf-odatlarini, marosim va udumlarini o'rganish uchun materiallar to'plash va ulardan ilmiy maqsadda foydalanishdan iborat. Ushbu tadqiqot jarayonida aholining etnik tarkibi, xususan XIX asr XX asr boshlarida etnik guruhlarning tarqalishi va joylashuviga alohida qaratiladi. Bundan tashqari o'rganilayotgan hudud aholisining turar joylari urug qabilaviy va oilaviy hamda qarindoshlik guruhlarning kelib chiqish yuzasidan xalq rivoyatlari aholi migratsiyasi aholining ko'chishiga sabab bo'lgan omillar yuzasidan ma'lumotlar to'planadi. Etnologik dala tadqiqotlarining asosiy vazifasi eng avvalo aholining etnik tarkibi va joylanishi haqida ma'lumot to'plash, hududdagi etnik jarayonlarning kechishi yuzasidan ma'lumot to'plash, aholining xo'jalik faoliyati, turmush tarzi, moddiy madaniyati va ijtimoiy turmushi xususida shaxsiy kuzatuv va axborotchilar bilan bevosita suhbat asosida materiallar to'plashdan iborat. Etnologik dala tadqiqotlarini o'tkazishda avlod ajdodlar shajarasi, etnogenez muammosi, urug' qabilachilik an'analari, an'anaviy mashg'ulotlar, xo'jalik faoliyati, moddiy madaniyati, ijtimoiy munosabatlar, mahallachilik an'analari, oila-nikoh munosabatlari, maishiy turmush an'analari, diniy tasavvurlar va ular bilan bog'liq marosimlar, urf- odatlar, xalq og'zaki ijodi yuzasidan ma'lumotlar olish rejalashtirilgan. Ushbu dasturga binoan ilmiy izlanishlar amalga oshirilayotgan hududdagi XIX asr oxiridan boshlab to hozirgi davrgacha bo'lgan zamonaviy jarayonlar ham o'rganiladi.

### Etnografiya, etnologiya va antropologiya fanining maqsad va vazifalari

Mazkur fanning maqsadi Etnografiya, etnologiya va antropologiyaning tarix fani tizimida tutgan o'rnini, fanning maqsadi, vazifalari va predmeti, tadqiqot obyektlari, fanining shakllanishi va ilmiy tashkilotlarining tashkil etilishi hamda ularning faoliyati.

vohamizning geografik o'rni va tabiiy sharoiti, vohamiz qishloq va ovullarida ijtimoiy va maishiy turmush tarzi, urf-odatlar va qoidalar, turar joylar va binolarni o'rganish, kiyim-kechak, poyafzal va taqinchoqlarni o'rganish, uy-ro'zg'or buyumlaridan foydalanish va ulardan o'lkamiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Fanning vazifasi - Etnografiya, etnologiya va antropologiya fanlarini o'rgatish misolida etnografiya, etnologiya va antropologiya harakatlantiruvchi omillarni tushuntirish, vatanimiz hududida etnomadaniy jarayonlarni o'ziga xos xususiyatlarini, etnografik holatni rivojlanish bosqichlarini va muhim etnografik, etnologik, antropologik davriy o'zgarishlarni to'g'ri baholash, etnogenez, etnik tarix, antropologik evolyutsion jarayonlarni rivojlanish omillarini tahlil qilishda etnografiya, etnologiya va antropologiya fanlarining o'rini anglab yetish, o'zbek xalqining etnogeniz, etnik tarix ildizlari, bugungi kundagi holati va kelajak istiqbollarini anglab yetish, etishishdan iborat.

#### **Kirish imtihon topshiruvchilar bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar:**

"Etnografiya, etnologiya va antropologiya" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida quyidagi muhim masalalarni bilish talab etiladi:

- Etnografiya, etnologiya va antropologiyani shakllanish va rivojlanishining asosiy bosqichlari;
- O'zbek xalqi etnografiyasi tarixi va istiqboli;
- O'zbeklar shajarasi va ajdodlar muammosi;
- O'zbek xalqining an'anaviy dehqonchilik xo'jaligi;
- An'anaviy chorvachilik xo'jaligi;
- Xunarmandchilik xo'jaligi;
- Transport va savdo;
- Moddiy madaniyati;
- An'anaviy uy-joy qurilishi va ularning turlari;
- Kiyim kechaklari va bezaklari;
- An'anaviy toamlar va pazandachilik;
- Ijtimoiy munosabatlar va mahallachilik an'analari;
- Xalq bayramlari va o'yinlari;
- Oilaviy turmush an'analari;
- Ma'naviy madaniyat va xalq og'zaki ijodi.

Tadqiqotchi Etnografiya, etnologiya va antropologiya fani bo'yicha quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

- Vatan etnografiya, etnologiya va antropologiya fanlari tarixini chuqur bilgan holda unijahon tarixi bilan uyg'unlikda va qiyosiy atroflicha tahlil eta olish;
- Etnografiya, etnologiya va antropologiya jarayonlar bo'yicha o'z qarashlarini ilmiyasoslash va ifodalash;
- Milliy mustaqillik va umuminsoniy etnomadaniy taraqqiyot g'oyalari bilan amalqiladigan faol hayotiy dumyoqarashga ega bo'lish;
- Etnografiya, etnologiya va antropologiya jarayonlar tahlilida xolislik, haqqoniylik vatarixiylik tamoyillariga amal qilish;
- Etnografiya, etnologiya va antropologiya fanlariga oid zamonaviy jarayonlar mohiyatini anglab yetish va tahlil eta olish;

- Etnografiya, etnologiya va antropologiya fanlariga talluqli yangi bilimlarni mustaqilegallay olish;

- Etnografiya, etnologiya va antropologiya sohasida o'z ilmiy faoliyatini tashkil eta olish.

"Etnografiya, etnologiya va antropologiya" fanidan o'tkaziladigan "Yozma ish" usulini

#### **BAHOLASH MEZONI**

- "Etnografiya, etnologiya va antropologiya" fani bo'yicha o'tkaziladigan "Yozma ish" ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variantda 5 tadan savol bo'lib, har bir savolga tegishli javob yoziladi.

- "Yozma ish" variantlarida keltirilgan har bir savol to'g'ri va to'liq yozilishi, ya'ni tarixiy jarayonlar, voqea-hodisalar mazmuni, mohiyati, sabablari, natijalari izchil yoritilishi, tarixiy atamalar va shaxslarning nomi to'g'ri yozilishi, ijodiy yondashish va javobda mantiqiy yaxlitlikka erishish, baholash uchun asos bo'lib hisoblanadi.

- "Yozma ish"ni bajarishda quyidagilarga amal qilinadi:

- "Yozma ish"larni o'tkazish uchun, institut rektorining buyrug'i bilan komissiya tashkil etiladi;

- "Etnografiya, etnologiya va antropologiya" fanidan imtihon bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi 0 dan 100 balgacha baholanadi. Har bir savolga berilgan javob 20 ballgacha baholanadi.

- "O'zbekiston tarixi"dan talabgorlar bilimi quyidagi mezon asosida baholanadi:

- berilgan savolga to'g'ri va to'liq javob yozilsa, tarixiy jarayonlar, voqea va hodisalarning mazmuni, mohiyati, sabablari, natijalari to'g'ri va izchil yoritilsa, tarixiy atamalar va shaxslarning nomi to'g'ri yozilsa, shuningdek ijodiy yondashilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa o'zlashtirish ko'rsatkichi **90-100 ball** oralig'ida baholanadi.

- berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, tarixiy jarayonlar, voqea va hodisalar mazmuni to'liq yoritilgan bo'lsa o'zlashtirish ko'rsatkichi **71-89 ball** oralig'ida baholanadi.

- berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, biroq tarixiy jarayonlar, voqea va hodisalar mazmuni to'liq yoritilmagan bo'lsa o'zlashtirish ko'rsatkichi **60-70 ball** oralig'ida baholanadi.

- berilgan savolga noto'g'ri yoki yuzaki javob yozilsa, qo'yilgan masalaning mazmuni va mohiyati ochib berilmasa unda o'zlashtirish ko'rsatkichi **0-59 ball** oralig'ida baholanadi.

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Maksimal ball	100
O'tish bali	60

### Asosiy qism

#### O'zbek xalqi etnografiyasi tarixi va istiqboli

O'zbek etnografiyasi manbalari. O'zbekiston hududida dastlabki etnografik tadqiqotlar. O'zbek xalq etnografiyasi tarixshunosligi. O'zbek xalqi etnografiyasining chet el olimlari tomonidan o'rganilishi. Mustaqillik yillarida etnologiya fani. O'zbek xalqi etnologiyasining dolzarb muammolari. O'zbek xalqi etnografiyasining istiqbollari. Manbalarning turlari: ashyoviy manbalar va og'zaki ma'lumotlar. Ommaviy manbalar, etnologik tadqiqotlar-etnologik dala ekspeditsiyalari. O'zbeklar etnologiyasi fanining maqsad va vazifalari. O'zbeklar etnologiyasining o'rganilishi. Boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi. Etnografik tadqiqot usullari. Etnograf olimlar. Etnografik manbalar.

#### O'zbeklar shajarasi va ajdodlar muammasi

O'zbek atamasi. O'zbek xalqining ilk ajdodlari. Mintaqada ilk etnik jarayonlar. O'zbek xalqi etnogenezi. Etnik tarixi. Etnik komponentlar. Etnik jarayonlar. Etnik assimilatsiya. Etnik konsolidatsiya. O'zbeklarning xalq sifatida shakllanuvchi. O'zbek millati. O'zbekistonda hozirgi davrdagi etnik jarayonlar. O'zbeklarning shakllanish jarayoni. O'zbek xalqining shakllanish jarayonida. Surxon vohasi aholisi. Ilk avlod-ajdodlar. Voha aholisining o'zaro aralashish jarayonlari. Voha hududida etnik guruhlarning joylashuvi. Voha aholisining antropologik va lingvistik xususiyatlari.

#### O'zbek xalqining an'anaviy dehqonchilik xo'jaligi

Ilk ziroatchilik. Dehqonchilik asbob-uskunalar. Ekin maydonlari. Almashlab ekish. Paykal. Boshqoqli ekinlar. Paxtachilik. Poliz ekinlari. Sabzavot ekinlari. Texnika ekinlari. Bog'dorchilik. An'anaviy agrotexnika. An'anaviy sug'orish tizimi. Dehqonchilik an'analari. Dehqonchilikdan undiriladigan soliqlar. Dehqon taqvimi.

#### An'anaviy chorvachilik xo'jaligi

Chorvachilik xo'jaligining xarakteri. Uy-ro'zg'or chorvachiligi. Yaylov chorvachiligi. Ko'chmanchi va yarim o'troq chorvachilik. Yaylov. Qo'ychilik. Qoramolchilik. Yilqichilik. Tuyachilik. Parrandachilik. Chorvachilik homiylari. Chorvachilik bilan bog'liq udumlar. Nasl olish. Xalq veterinariyasi. Chorvachilik taqvimi.

O'zbekiston aholisining chorvachilik xo'jaligi madaniy tiplari. Xo'jalik mashg'ulotlarining asosiy omillari. O'zlashtirish va ishlab chiqarish xo'jalik madaniy tiplari.

An'anaviy dehqonchilik xo'jaliklari (Xorazm, Buxoro, Samarqand, Surxandaryo viloyatlari). Hunarmandchilik va uning turlari haqida. Temirchilik, misgarlik, zargarlik. Yog'och o'yimkorligi va duradgorlik. Kulolchilik, to'qimachilik kasb-hunarlar va xokazolar. O'zbekiston hududida dehqonchilik tizimi. Qishloq xo'jalik ekinlarining

asosiy turlari: oq ekinlarning asosiy turlari: oq ekinlar, ko'k ekinlar. Dehqonchilikning asosiy tarmoqlari. Yemi ekinga tayyorlash, ekin, hosilni yig'ish va yanchish usullari. An'anaviy sug'orish tizimi. Chorvachilikning voha hududlari bo'yicha joylashishi. Chorva mollarini boqish va parvarish qilish. Qishloq va shaharlarda uy-kasbkorligi va hunarmandchiligi. Xom-ashyo va uni qayta ishlash. Uy kasbkorligi va hunarmandchilikka oid urf-odat va marosimlar.

#### Hunarmandchilik xo'jaligi

Hunarmandchilik turlari. Kulolchilik. Temirchilik. Degrezlik. To'qimachilik. Duradgorlik. Kasanachilik. Uy-ro'zg'or kasbkorligi. SHERIKCHILIK. Usta shogirdlik. Hunarmandchilik an'analari. Hunarmandlar mahallasi. Soliqlar. Bozor. Hunarmandchilik bilan bog'liq udumlar va marosimlar

#### Transport va savdo

An'anaviy transport vositalari. Tarixiy savdo yo'llari. Lazurit yo'li. Shoh yo'li. Buyuk ipak yo'li. SHERIKCHILIK. Karvonsaroylar. Chakana savdo. Ulgurji savdo. Do'kon. O'lchov birliklari. Safarga chiqish. Savdo va madaniy aloqalar. Savdo-sotiq an'analari. Tim va toqlar. Bozor.

#### Moddiy madaniyati.

Moddiy madaniyat tushunchasi. Moddiy madaniyat turlari. Milliy boylik. Asoriatlilar. Uy-joylar. Kiyim kechaklar. Bezaklar. Taomlar. Mehmondorchilik. Xalq amaliy san'ati

#### An'anaviy uy-joy qurilishi va ularning turlari

Uy-joy qurilish ashyolari. Rejasi. Vaqtinchalik uylar. Mavsumiy uylar. Doimiy turar joylar. Xo'jalik binolari. Hovlilar. Uy-joy qurilishi. uy-joy bilan bog'liq udumlar. Irimlar. An'analar. Me'morlar. Amaliy bezak. Uy-joy jihozlari. Qishloqlar. Ovullar. Shaharlar.

Turar joylarning shakllanish tarixi. Uy-joylar qurish va ularni jihozlash bilan bog'liq an'analar. Mavsumiy va vaqtinchalik turar joylar. Ilk turar joylarning shakllanishi. Mavsumiy turar joylar. Lochiq. Kapa. Chum. Chayla. Yer tom. To'la. Cho'pon to'la. Bog' tom. O'tov. Qora uy. Oq o'tov. Qizil o'tov. Doimiy turar joylar. Hayot. Hovli. "Ichkari hovli". "Tashqari hovli". Uy. Daxliz. Ayvon. Loy (paxsa). G'isht. Guvala. Yog'och. Loy suvoq. Chupkori. Xurjun tom. Bolaxonalilar uylar.

#### Kiyim kechaklari va bezaklari

To'qimachilik. Iplarni bo'yash. Mato tayyorlash usullari. Do'kon. Mavsumiy kiyimlar. Bolalar kiyimi. Erkaklar kiyimi. Ayollar kiyimi. Keksalar kiyimi. Marosim kiyimlari. Bosh kiyimlari. Taqinchoqlar. Taqinchoq turlari. Zargarlik. Boshqa bezaklar.

Kiyim-kechak va taqinchoqlar, ularning turlari. Kiyimlarni bichish va tikish bilan bog'liq bo'lgan irimlar. Taqinchoqlar turlari. Taomlarni tayyorlash va iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va marosimlar. Idish-tovoq turlari va ularning evolyutsiyasi. O'zbek xalqining an'anaviy kiyimlari moddiy madaniyatning bir qismi. Kiyimlarning asosi bo'lgan mato va mato tayyorlash usullari. Paxta. G'ozak. Jun. Xalaji. Urchuq. O'rmak. Do'kon. Bo'z. Olacha. Beqasam. Baxmal. Adras. Yozlik hamda qisNik kiyimlar. Erkaklar, xotin-qizlar, bolalar hamda marosim kiyimlari. Taqinchoqlar va ularning turlari.

#### An'anaviy taomlar va pazandachilik

Oshxona asbob-anjomlari. Donli taomlar. Go'shtli taomlar. Sutli taomlar. Marosim taomlari. Taom tayyorlash usullari. Taomlar bilan bog'liq irimlar. O'choq va

tandir. Taqiqlangan taomlar. Nabotat taomlar. Pazandachilik. Qo'noq. Qo'shxona. Mehmonnovozlik.

Nabotot (o'simlik) taomlari: arpa uni, bug'doy uni, makkajo'xori uni, tariq uni. Nonlar. Bug'doydan tayyorlanadigan taomlar. Guruchdan tayyorlanadigan taomlar. No'xat. Loviya. Go'shtli taomlar: sut, sut og'iz (qag'anoq), gelagay (suzma), ayron, qimiz. Sariyog'. Shirinliklar. Qandolatchilik. Marosim taomlari va ular bilan bog'liq irim-sirimlar.

#### **Ijtimoiy munosabatlar va mahallachilik an'analarini**

Qishloq jamoasi. Qishloqlar boshqaruvi. Oqsoqol. Gap-gashtak. Xashar. Paykal. Jamoa mulki. Jamoatchilik. Choyxona. Yig'in. Maslahat. Qarindosh urug'chilik. Qo'nuqo'shnihilik. Darveshona. Umumjamoat inshootlari. Mahalla bilan bog'liq an'analar.

O'zbeklarning an'anaviy ijtimoiy turmushi. Oila va oilaviy turmush an'analarini. Patriaxal monogam oilalar, ularning strukturasi. O'zbek oilalarining moddiy va ma'naviy hususiyatlari. Oilaviy maishiy marosimlari: To'y marosimlari - nikoh to'yi, to'ylarni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan an'ana hamda marosimlar. O'zbeklarning qadimiy diniy e'tiqodlari. O'zbeklar hayotida islom va uning o'rnini. O'zbeklarning marosim va rasm-rusumlari. O'zbek oilasining vujudga kelishi. Katta oila. Oila jamoasi. Oilaviy marosimlarni o'tkazishda jamoatchilik an'anasi. Tushov kesdi. Sunnat to'y. Oilaviy-maishiy va nikoh masalalari. Vohada yashovchi aholilarning yosh avlodni tarbiyalashga doir an'analarini.

#### **Xalq bayramlari va o'yinlari**

Bayramlar. Navro'z. Sada. Lolasayli. Gulisurx. Mehrjon. Yaldotuni. Ro'za hayiti. Qurbon hayiti. Oilaviy bayramlar. An'anaviy o'yinlar. Boboltaka. Kim o'zar. Oq terakmi ko'k terak. Chovgon. Uloq. Kurash. Bekinmachoq. Oqsuyak. Tosh o'yini. O'g'il bolalar o'yini. Qiz bolalar o'yini. Kattalar o'yini. Sovrun.

O'zbeklarning an'anaviy bayramlari. O'zbeklarning an'anaviy o'yinlari. Biror predmet asosida o'ynaladigan o'yinlar. Predmetsiz o'ynaladigan o'yinlar. O'rtada biror shart qo'yib o'ynaladigan o'yinlar.

O'zbeklarning milliy bayramlari. Bahorgi marosimlar: Navro'z, shoxmoylar (qo'sh chiqarish), qizil gul sayli, loy tutish, "sust xotin". Yozgi marosimlar. Kuzgi marosimlar. Kattalar o'yini. Bolalar o'yini. Biror predmet asosida o'ynaladigan o'yinlar. Chillik. Oq suyak. Ganosh. Boboltaka. Zim-ziyo. Tiqmoq. G'irbaydi va boshqalar.

#### **Oilaviy turmush an'analarini**

Oila. Oilaviy an'analar. Urug'chilik. Qon-qarindoshlik. Bolalar tarbiyasi. Namuna. Jamoa. Nikoh. Ortokuzen nikoh. Kroskuzen nikoh. Levrit nikoh. Sorarat nikoh. Poligamiya. Manogamiya. Oilaviy bayramlar. Tarbiya. Ta'lim. Ma'naviyat.

O'zbek xalqining diniy e'tiqodlari tarixidan. Anizimz. Badikxonlik. Zardushtiylik. Avesto. Axuramazda. Axriman. Buddizm. Islom dini. Qur'oni Karim. Hadis. Payg'ambar. Choharyorlar. Mazhablar. Shia. Sunniy. Musulmonchilikning besh asosiy farzi. Qur'on va Ro'za hayitlari. Dafn marosimlari.

#### **Ma'naviy madaniyat va xalq og'zaki ijodi**

Madaniyat. Moddiy madaniyat. Ma'naviyat. Ma'naviy madaniyat. An'ana. Udum. Marosim. Bag'rikenglik. Tarixiy meros. Mentallitet. Tarixiy saboq. Sivilizatsiya. Xalq og'zaki ijodi. Xalq qo'shiqlari. Topishmoqlar. Matal. Masallar. Maqollar. Xalq dostonlari. Qahramonlik dostonlari. Maishiy dostonlar. Xalq baxshilari. Jangnomalar. Yozuv. Adabiy jarayon. Musiqa. Tasviriy san'at. Haykaltaroshlik.

Xalq qo'shiqlari. Xalq ertaklari. Rivoyat va dostonlar. O'zbeklarning an'anaviy ma'naviy madaniyati haqida umumiy ma'lumot. O'zbeklarning musiqa san'ati tarixi. Musiqa cholg'ularining yaratilish tarixi. Qo'shiqlar: mehnat qo'shiqlari, dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar, chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari, hunarmandchilik bilan aloqada mehnat qo'shiqlari. Aytishuvlar. Termalar. Afsonalar. Rivoyatlar. Naqlar. Ertaklar: sehrli ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, maishiy ertaklar, dostonlar.

#### **O'zbek xalqining etnomadaniy hayotidagi muhim musiqa san'ati va musiqa cholg'ulari**

Qo'shiqlar: mehnat qo'shiqlari, dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar, chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari, hunarmandchilik bilan aloqada mehnat qo'shiqlari.

Aytishuvlar. Termalar. Afsonalar. Rivoyatlar. Naqlar. Ertaklar: sehrli ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, maishiy ertaklar, dostonlar.

#### **"Etnografiya, etnologiya va antropologiya" fanidan**

#### **o'tkaziladigan "Yozma ish" usulini**

#### **BAHOLASH MEZONI**

"Etnografiya, etnologiya va antropologiya" fani bo'yicha o'tkaziladigan "Yozma ish" ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variantda 5 tadan savol bo'lib, har bir savolga tegishli javob yoziladi.

"Yozma ish" variantlarida keltirilgan har bir savol to'g'ri va to'liq yozilishi, ya'ni tarixiy jarayonlar, voqea-hodisalar mazmuni, mohiyati, sabablari, natijalari izchil yoritilishi, tarixiy atamalar va shaxslarning nomi to'g'ri yozilishi, ijodiy yondashish va javobda mantiqiy yaxlitlikka erishish, baholash uchun asos bo'lib hisoblanadi.

"Yozma ish"ni bajarishda quyidagilarga amal qilinadi:

- "Yozma ishlarni o'tkazish uchun, institut rektorining buyrug'i bilan komissiya tashkil etiladi;

- "Yozma ish"ning hajmi 1000-1200 so'z gacha deb belgilanadi. "Yozma ish"ni o'tkazish uchun 3 soat vaqt beriladi.

"Etnografiya, etnologiya va antropologiya" fanidan imtihon bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi 0 dan 100 bal gacha baholanadi. Har bir savolga berilgan javob 20 ball gacha baholanadi.

"Etnografiya, etnologiya va antropologiya" dan talabgorlar bilimi quyidagi mezon asosida baholanadi:

- berilgan savolga to'g'ri va to'liq javob yozilsa, tarixiy jarayonlar, voqea va hodisalarning mazmuni, mohiyati, sabablari, natijalari to'g'ri va izchil yoritilsa,

tarixiy atamalar va shaxslarning nomi to'g'ri yozilsa, shuningdek ijodiy yondashilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa o'zlashtirish ko'rsatkichi **90-100 ball** oralig'ida baholanadi.

- berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, tarixiy jarayonlar, voqea va hodisalar mazmuni to'liq yoritilgan bo'lsa o'zlashtirish ko'rsatkichi **71-89 ball** oralig'ida baholanadi.

- berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, biroq tarixiy jarayonlar, voqea va hodisalar mazmuni to'liq yoritilmagan bo'lsa o'zlashtirish ko'rsatkichi **60-70 ball** oralig'ida baholanadi.

- berilgan savolga noto'g'ri yoki yuzaki javob yozilsa, qo'yilgan masalaning mazmuni va mohiyati ochib berilmasa unda o'zlashtirish ko'rsatkichi **0-59 ball** oralig'ida baholanadi.

### SAVOLLAR

1. Mehnat qurollarining turlari, tayyorlanishi haqida ma'lumot bering.
2. Qishloq aholisi yerga qanday ishlov beradi an'anaviy agrotexnika (ekinlar parvarishi, o'g'itlash, hosilni yig'ish va saqlash) haqida ma'lumot bering.
3. Qishloq aholisining dehqonchilik bilan bog'liq udumlari, an'analari haqida ma'lumot bering.
4. Qishloq aholisining dehqonchiligi homiylari (pirilari) bilan bog'liq afsona va marosimlari haqida ma'lumot bering.
5. Qishloq aholisining tabiat hodisalari osmon jismlari bilan bog'liq qarashlarini haqida ma'lumot bering.
6. Qishloq aholisining dehqonchilik bilan bog'liq kalendarlari (ya'ni oylar nomi qishgi chilla, yozgi chilla, qavs, mezon va hakoza) haqida ma'lumot bering.
7. Qishloq ahlining bog'dorchilik sohasi daraxtlar parvarishi, seleksiyasi (payvandlash) mevasi daraxt turlari haqida ma'lumot bering.
8. Qishloq aholisining chorvachilik xo'jaligi, qoramolchilik, yilqichilik, qo'ychilik sohalari va ular bilan bog'liq an'analari haqida ma'lumot bering.
9. Chorva mollarining nomlari va ularning turlari haqida ma'lumot bering.
10. Yaylovlar, mollarni yaylovga haydash vaqti, marosimlari va an'analari haqida ma'lumot bering.
11. "Yetti xazina" tushunchasi va uning turlari, ular bilan bog'liq rivoyatlar haqidama'lumot bering.
12. Chorvachilik bilan bog'liq marosimlar va udumlarni yozib oling.
13. Chorva mollari parvarishi, kasal mollarni davolash bilan bog'liq tajribalar.
14. Chorvachilik pirlari (homiylari) va ular haqida rivoyatlar.
15. Qishloq aholisining ana'naviy hunarmandchilik xo'jaligi haqida ma'lumot bering.
16. Hunarmandchilik turlari (temirchilik, duradgorlik, asbob-uskuna, uy-ro'zg'or buyumlari yasash va h.k.) haqida ma'lumot bering.
17. Hunarmandchilik xom ashyosi, buyum yasash jarayoni, bo'yash, rang olish haqida ma'lumot bering.
18. Hunarmandchilik asbob-uskunlari va ularning vazifasi, nomlanishi haqida ma'lumot bering.
19. Hunarmandchilik, usta-shogirdlik an'analari haqida ma'lumot bering.
20. Hunarmandchilik an'analari va u bilan bog'liq udumlar, tajribalar, marosimlar

haqida ma'lumot bering.

21. Hunarmandchilik turlari, homiylari va pirlari haqida ma'lumot bering.
22. Voha aholisining uy joylari (vaqtinchalik, doimiy, mavsumiy) kapa, lochiq, o'tov, paxsa uylar haqida ma'lumot bering.
23. Uy joylarni qurilishi bilan bog'liq materiallar, qurilish tartibi, o'lchami uy turlari haqida ma'lumot bering.
24. Uylarning jihozlari (masalan o'tov, lochiq, kapa va h.k.lar)ning jihozlari haqidama'lumot bering.
25. Uy-joy qurish bilan bog'liq udumlar, marosimlar, tasavvurlar haqida ma'lumot bering.
26. Ustalar sulolasi, ularning qayerlarda yashash haqida ma'lumot bering.
27. Uylarning mintaqalar bo'ylab joylashuvi qurilish material, tabiiy sharoit bilan bog'liq tarzda qurilishi haqida ma'lumot bering.
28. Hashar ishlari, ularni tashkil etish bilan bog'liq an'analari.
29. Qishloq ahlining kiyimlari, yoshga, jinsga qarab kiyinish, kiyim turlari, haqidama'lumot bering.
30. Qishloq ahlining mato tayyorlash usullari, mato turlari, ularning xomashyosito'qimachilik bo'yash, ranglari haqida ma'lumot bering.
31. Bolalar kiyimi ularning turlari va mavsumga bog'liq tarzda kiyinish xususidama'lumot bering.
32. O'spirinlar kiyimi.
33. Yosh va o'rta yoshlilar kiyimi
34. Qiz bolalar kiyimi.
35. Ayollar kiyimi.
36. Kexsa yoshlilar kiyimi.
37. Marosim kiyimlari.
38. Kiyimlardagi bezaklar: chiroz, jiyak, hoshiya, taqinchoq va ular bilan bog'liq tasavvurlarni bering.
39. Bosh kiyimlari va ularning turlari.
40. Oyoq kiyimlari va ularning turlari (mo'kki, hakkari, ko'k kovush, sandal, mahsi-kovush va h.k.)
41. Qishloq ahlining taqinchoqlari bezaklari haqida ma'lumot yig'ing (bosh, quloq, bo'yin, burin, bilak, barmoq taqinchoqlari, kiyim taqinchoqlari)
42. Taqinchoq turlari, nomlari, shakli, material, yasalishi, ustazargarlar haqida ma'lumot bering.
43. Qishloq ahlining ana'naviy taomlari, turlari, retsepti, tayyorlanish uslubi haqidama'lumot bering.
44. O'choq va tandir bilan bog'liq, ularning turlari, qurilishi, joylashish o'rni haqidama'lumot bering.
45. Oshxona asbob-anjomlari haqida ma'lumot bering.
46. Go'shtli taomlar: turlari, tayyorlanishi.
47. Sutli taomlar: turlari, tayyorlanishi.
48. Nabobat taomlari: turlari tayyorlanishi.
49. Donli taomlar: turlari tayyorlanishi.
50. Ichimliklar: turlari tayyorlanishi.
51. Shirinliklar: turlari tayyorlanishi.
52. Marosim taomlari: turi, tayyorlanishi.
53. Taom tayyorlash bilan bog'liq udum va rivoyatlar, an'analari, tajribalar,

irimlar, retseptlar.

54. Qishloq ahlining oila-nikoh munosabatlari haqida ma'lumot bering.
55. Oila turlari (katta oila va nuklear oila)
56. Bolalar tarbiyasi va u bilan bog'liq tajribalar, udumlar, an'analar, qadriyatlar.
57. Qishloqlarni boshqarish tartiblari, qishloq markazi, choyxona, masjid, hasharlar, majburiyatlar, an'analar haqida ma'lumot bering.
58. Qarindosh-urug'chilik an'analari qarindoshlik turlari, qarindoshlar nomlanishi haqida ma'lumot bering.
59. Qishloq aholisining qarindosh urug'chilik bilan bog'liq an'analari va qadriyatlarini, maqol va rivoyatlar.
60. O'rganilayotgan qishloq aholisining to'ylari (beshik tuy, muchal to'y, sunnat to'y, nikoh to'y, payg'ambar to'y, yosh to'yi, hovli to'y) haqida ma'lumot bering.
61. To'y oldi marosimlari, to'y xarajatlari haqida ma'lumot bering.
62. To'y payti bajariladigan marosimlar va irimlar.
63. Qalin va sut puli hamda mahr haqida ma'lumot berin
64. To'y tamoshalari (darboz, ko'pkari, olish, doston kuylash, har xil o'yinlar, aytishuvlar) haqida ma'lumot bering.
65. Xatna va uning bajarilishi.
66. Dafn va ta'ziya, aza bilan bog'liq marosimlar.
67. Mayitni yuvish, kafanlash, qabrga qo'yish, qabr turlari, irimlar, ruhga bag'ishlab o'tkaziladigan marosimlar.
68. Marsiyalar, aza yo'qlovlari.
69. Dafngacha va dafndan keyingi marosimlar.
70. Qishloq ahlining xalq og'zaki ijodi haqida ma'lumot bering (matallar, masallar, maqolar, rivoyatlar, ertaklar, laparlar, afsonalar, qo'shiqlar, topshiriqlar, dostonlar, o'lanlar, termalar, marsiyalar hikmatli so'zlar va h.k.)
71. Xalq baxshilari ularning dostonlari, cholg'u asboblari, ijro yo'li, ustoz-shogirdlik an'alari haqida ma'lumot bering.
72. Qishloq ahlining o'yinlari haqida ma'lumot bering.
73. Bolalar o'yini.
74. Kattalar o'yini.
75. Yoshga qarab o'tkaziladigan yig'inlar, gap-gashtaklar, jo'rachilik haqida vaularning o'tkazish tartibi haqida ma'lumot bering.
76. Darvishona, sadaqa, ehson va boshqa marosimlar ularning o'tkazilishi haqidama'lumot bering.
77. Qishloq ahlining inson a'zolari va salomatlik borasida amalga oshirgan ishlaritoplagan tajribalari, kasalliklarni davolash, emlash bilan bog'liq an'analar.
78. Giyohlardan tayyorlanadigan turkona dori-darmonlar, ularning tayyorlanishi va ishlatilishi haqida ma'lumotlarni bering.
79. Kasalliklarni davolashda qo'llaniladigan tadbirlar dam solish, jahr, kinna silash, ko'chiriq, alaslash, xaplash, muqaddas joylar ziyorati va ularning tartiblari.
80. Kasalliklar va ular bilan bog'liq irimlar.
81. Qishloq ahlining kundalik hayotida amal qiladigan irimlari haqida ma'lumotlar bering.
82. Qishloq ahlining g'ayri tabiiy kuchlar, sehr-jodu, jin, alvasti, dev, pari va hako'zalar bilan bog'liq irim tushuncha va tasavvurlari, ularga bag'ishlab

- o'tkaziladigan marosimlar haqida ularning o'tkazilishi xususida ma'lumot bering.
83. Siz o'rganayotgan qishloqning xalq og'zaki ijodi namunalari.
  84. Sust xotin qo'shiqlari qanday ijro etilgan.
  85. Qo'sh qo'shiqlari qanday ijro etilgan.
  86. Kashta qo'shiqlari qanday aytilgan.
  87. Yorg'unchoq qo'shiqlari qanday aytilgan.
  88. Sigir sog'ish qo'shiqlari qanday aytilgan.
  89. Cho'pon qo'shiqlari qanday aytilgan.
  90. Qo'y sog'ish qo'shiqlari qanday aytilgan.
  91. Echki sog'ish qo'shiqlari qanday aytilgan.
  92. To'n qavish qo'shiqlari qanday aytilgan.
  93. Yor-yorlar qanday ijro etilgan.
  94. Allalar qanday ijro etilgan.
  95. O'lanlar qanday ijro etilgan.
  96. Kelin salomlar qanday ijro etilgan.
  97. Xirmon qo'shiqlari qanday ijro etilgan.
  98. Dursi qo'shiqlari qanday ijro etilgan.
  99. Shamol chaqirish qo'shiqlari qanday ijro etilgan.
  100. To'y qo'shiqlari qanday ijro etilgan.
  101. Yanchiq qo'shiqlari qanday ijro etilgan. (somon yanchiq)
  102. Tegirmon qo'shiqlari qanday ijro etilgan.
  103. Qanday an'anaviy cholg'u asboblari bilasiz va ularning yasalishi to'g'risida ma'lumot bering.
  104. Chanqovuz to'g'risida ma'lumot bering.
  105. Do'mbira to'g'risida ma'lumot bering va qanday tayyorlanadi.
  106. Do'mbirada chalinadigan kuylar to'g'risida ma'lumot bering.
  107. Chanqovuzda chalinadigan kuylar to'g'risida ma'lumot bering.
  108. Nay va sibirg'ato'g'risida ma'lumot bering va ularda chalinadigan kuylar to'g'risida ma'lumot bering.
  109. Baxshilar shajarasi to'g'risida ma'lumot bering.
  110. Shernabaxshi to'g'risida ma'lumot bering.
  111. Xoliyor baxshi to'g'risida ma'lumot bering.
  112. Avliyoqul Mardonov o'g'li to'g'risida ma'lumot bering.
  113. Alim yuzboshi to'g'risida ma'lumot bering.
  114. Umir baxshi to'g'risida ma'lumot bering.
  115. Sherobod dostonchilik maktabi to'g'risida ma'lumot bering.
  116. Shoberdi baxshi Boltayev to'g'risida ma'lumot bering.
  117. Abdinazar baxshi Poyonov to'g'risida ma'lumot bering.
  118. Mamaraim baxshi Raximov to'g'risida ma'lumot bering.
  119. Shodmon baxshi to'g'risida ma'lumot bering.
  120. Chorshan baxshi Raxmatullayev to'g'risida ma'lumot bering.
  121. Alpomish dostoni bilan bog'liq joy nomlarini aniqlang. (Tovkaning qo'rg'oni, Alpomishning cho'hi, Boychiboming oxuri)
  122. Xalq kitoblari to'g'risida ma'lumot bering.
  123. "Toshbosar", "Xursuna" dostonlari haqida ma'lumot bering.
  124. Baxshichilik maktablari to'g'risida ma'lumot bering.
  125. Xalq baxshisi unvoni qanchon tashkil etilgan va unga kimlar sazovor bo'lgan.

126. Baxshichilik maktablarining ustoz-shogirdlik an'analari.
127. Xalq maqollari to'g'risida ma'lumot bering.
128. Topishmoqlar to'g'risida ma'lumot bering.
129. Alpomish dostonining variantlari to'g'risida ma'lumot bering.
130. Alpomish dostoni kimlardan yozib olingan.
131. Alpomish dostonining 1000 yilligi qachon nishonlandi.
132. Alpomish dostonining 1000 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tadbirlar to'g'risida ma'lumot bering.
133. Go'ro'g'li va Alpomish sikliga oid dostonlar haqida ma'lumot bering.
134. Xalq dostonlarida qahramonlik, vatanparvarlik, tarbiya, mehnat sevarlik, sevgi, vafo to'g'risida berilgan ma'lumotlarni aniqlang.
135. Xalq dostonlarining ijro uslubi haqida ma'lumot bering.
136. Xalq dostonlarida ot bilan bog'liq motivlar qanday tasvirlangan.
137. O'zbekistonda xalq og'zaki ijodi va baxshichilik san'atining mustaqillik yillardagi taraqqiyoti to'g'risida ma'lumot bering.

#### Asosiy adabiyotlar

1. Sagdullaev. A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2004. (o'quv qo'llanma)
2. Egamberdieva N. Arxeologiya (o'quv qo'llanma). – T.: Fan vatexnologiya, 2011.
3. Jabborov I. M. Jahon xalqlari etnografiyasi asoslari Darslik T. O'qituvchi 2008.
4. Jabborov I. M. O'zbek xalqi etnografiyasi Darslik T.«O'qituvchi» 1994.
5. Под ред. Г.Э.Маркова и В.В.Пименова Этнография. Учебник. М.1994

#### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qathiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. - 104 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. - T.: O'zbekiston, 2018.
4. Mirziyoev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon buladi. - T.: O'zbekiston, 2019.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

6. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. —Toshkent, 2001.
7. Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining bahzi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari // O'zbekiston tarixi.2002. № 4. – B.54-60.
8. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. – T.: Fan, 2001
9. Akademik A.Asqarovning ilmiy ijodi va pedagogik faoliyati. –T., 2003
10. Allaberganov N. Qadimiy mudofaa qo'rg'onlari. –T., 2006. 26
11. Jabborov I. Antik madaniyat va mahnaviyat xazinasi. – T., 1999.
12. Bo'riyev O. Manbalarda Shahrisabz tavsifi. – Qarshi, 2004.
13. Maxmudov Q. Qadimgi Turkiston. – T., 2011.
14. Muxammadjonov A. Qadimgi Buxoro. – T., 1991.
15. Pidaev Sh.R. Qadimiy Termiz. – Tashkent, 2001.
16. Qayumov A. Akademik Axmadali Asqarov. - T., 2003.
17. Qadimgi O'zbekistonda buddaviylik va buddaviy meros. –T., 2011.
18. Egamberdieva N. Arxeologiya ( metodik qo'llanma). –Tashkent, 2008.
19. Xodjaniyozov G'. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. –T., 2007
20. Eshov B. Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. – T., 2006.

#### Axborot manbaalari

1. [www.pedagog.Uz](http://www.pedagog.Uz)
2. [www.Ziyonet.Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
3. [www.history.ru](http://www.history.ru)
4. [www.archaeology.ru](http://www.archaeology.ru)
5. [www.archaeology.com](http://www.archaeology.com)